"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 04, ISSUE 01, 2026. JANUARY
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

DISLALAYADA L,R TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKSIYALASHDA MAXSUS USULLAR VA LOGOPEDIK O'YINLAR

Allambergenova Muhabbat Xasanbaevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti pedagogika fanlar doktori (DSc)dotsent
Tairova Zebiniso Niyazimbetovna
Maxsus pedagogika-logopediya yo'nalishi 3 kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola bolalarning nutq kamchiliklari, ularning buzulishlari, noto'g'ri nutq kamchiligi haqida. Dislaliya turlari va ularni bartaraf etish uslublari. Artikulyatsion gimnastika.*

Kalit so'zlar: *dislaliya, mexanik, funksional, Velyar rotatsizm , Kucherskiy rotatsizm, Uvilyar rotatsizm, Yon rotatsizm, lambatsizm.*

Аннотация: *Данная статья посвящена дефектам речи детей, их нарушениям, невнятной речи. Виды дислалии и методы их преодоления. Артикуляционная гимнастика.*

Ключевые слова: *дислалия, механическая дислалия, функциональная дислалия, велярный ротацизм, кучерский ротацизм, увулярный ротацизм, боковой ротацизм, ламбдацизм.*

Annotation: *This article is about children's speech deficiencies, their disorders, poor speech. Types of dyslalia and methods of their elimination. Articulatory Gymnastics.*

Keywords: *dyslalia, mechanical dyslalia, functional dyslalia, velar rotacism, Kuchersky rotacism, uvular rotacism, lateral rotacism, lambdacism.*

Disialiya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis - buzilish, lalia - nutq degan ma'noni anglatadi.

M. Ayupova ma'lumotiga ko'ra 5 yoshli bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar 41,5%, 6 yoshli bolalarda esa 22,9% ni tashkil etadi.

M. Ayupova ma'lumoti bo'yicha 5 yoshli bolalarda sirg'aluvchi (s,z) 32,1%, shovqinlilar (sh, j) 38,4%, "r" tovushi talaffuzida 60,7%, til orqa tovushlari 25%, chuqur til orqa tovushlari (q, g ') 7,1%, "Г" tovushi 5,4% tashkil etgan.

Dislaliyaning kelib chiqish sabablari:

Nutq apparatlarini ishlab chiqish muammolari bo‘lgan bolalarda buzilishlar bo‘lishi mumkin: jag‘lar, til, lablar, tishlar. Bunday buzilishlar mexanik dislaliya deyiladi. Nutq apparatining normal rivojlanishida “funktsional disaliya” tashxisi qo‘yiladi.

Organik bezovtaliklar:

- tilning qisqa burchagi va yuqori labda
- haddan tashqari qalin lablar
- juda katta, yoki aksincha kichik til
- jag`larning oldinga chiqishi (prognatiya,progeniya)
- ochiq va yopiq prikus.

Bolalardagi disliyalarning sabablari vokal apparatining tarkibiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatda talaffuzning buzilishi quyidagilarga bog‘liq:

- kimdirning noto‘g‘ri gapiga taqlid qilish
- oilada noto‘g‘ri nutq madaniyati
- tilni to‘g‘ri holatida ushlab turolmaslik
- fonematik tinglashning kamligi
- bir harakatdan ikkinchisiga tez til o‘tish.

Dislaliya turlari

Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin.

Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo‘lgan: sonor (r, l), sirg‘aluvchi (s, z,) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi.

Rotatsizm va uni tuzatish

R tovushini nutqda qo‘llay olmaslik yoki noto‘g‘ri talaffuz etilishi ro ta tsizm, r tovushini nutqda boshqa tovushlarga almashtirilishi parorotatsizm deb ataladi.

R tovushining artikulatsiyasi quyidagichadir. Lab undosh tovushdan so‘ng keladigan unli tovushlar holatini oladi, til uchi alveolalar tomon ko‘tariladi, buning natijasida biroz chuqurcha paydo bo‘ladi, shu chuqurchadan chiqqan havo oqimi til uchini titratib o‘tadi va titroq tovush hosil bo‘ladi. Ovoz paychalari jipslashib titraydi va chiqayotgan havo oqimi kuchli bo‘ladi.

Rotatsizmning quyidagi turlari mavjud:

1. Velyar rotatsizm (grek ch a velum -yumshoq tanglayning pastki chetiga yaqinlashadiva u yerda oraliq (tirqish) hosil b o ‘ladi. Shu oraliqdan o‘tayotgan havo oqimi yumshoq tanglayda tartibsiz titrash (vibratsiya) hosil qiladi. Natijada ovozga q o ‘shilib shovqin chiqadi.

2. Uvilyar rotatsizm (grekcha uvula - tilcha), bunda til uchi tebranishi o‘rniga, faqat tilcha tebranadi.

3. Kucherskiy rotatsizmi - bunda til uchi tebranmay, lablar jipslashib tebranadi.

4. Yon rotatsizm, bunda til uchi tebranishi o‘rniga, tilning yon tomoni tebranadi, natijada noaniq r tovushi hosil boladi.

Amaliyotda pararotatsizmni quyidagi turlari uchraydi, ya’ni r tovushi quyidagicha tovushlar bilan almashtiriladi r I; y (j) ; r ya.

Rotatsizmga anatomik kamchiliklardan til tagidagi yuganchaning kaltaligi; tor va baland tanglay, haddan tashqari ingichka til sabab bo‘lishi mumkin.

Rotatsizmni tuzatish. R tovushining to‘g‘ri artikulatsiyasini hosil qilish uchun ko‘pchilik hollarda tayyorlov mashqlaridan foydalaniladi. Ularni biz shartli ravishda ikki turga ajratishimiz mumkin. Birinchi tur mashqlar tilni kerakli to‘g‘ri holda ushlab turishga, kerakli holatlarga keltirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tur mashqlar tilda tebranish hosil qilishga qaratilgandir.

R tovushini hosil qilishda bir nechta usullardan foydalanish mumkin.

1-usul. Logoped oyna oldida o‘tirgan boiaga og‘zini katta ochishni va til uchini yuqori tish orqasiga (alveolalar tomon) ko‘tarib, r tovushini talaffuz etishni taklif etadi va o ‘zi maxsus zond yordamida til yuganchasini tebratib r tovushiga o‘xshash tovushni hosil qildiradi. So‘ngra mexanik vositalar yordamida vujudga kelgan r tovushi ochiq, yopiq bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, jumlalarda, she’r va topshiriqlarda mustahkamlanadi.

2-usul. Logoped r tovushini hosil qilish uchun bolaga yuqoridagi usulni qo‘llagan holda / tovushini ayttiradi va bunda ham mexanik vositalardan foydalanadi.

3-usul. Logoped bolaga bir nafas chiqarib d tovushini baland ovozda aytishni taklif etadi. Talaffuz vaqtida bolaning o‘zi tilining uchini tepa alveolalarga urilib turishini oyna orqali kuzatib turishi lozim. Til uchining urilish sur’ati tezlashadi. Va til uchining tebranish holati har xil dddd. vaznda bo‘ladi. Har xil vaznda chiqqan tovush ochiq va yopiq bo‘g ‘inlarni talaffuz ettirish yordamida mashq qildiriladi:

Didda adddd adddd

Dddd dddd oddddo

Ddddu udddd uddddu

Ddddo‘o‘dddd o‘ddddo‘

Til uchining tebranishi natijasida r tovushi hosil bo‘lgach, u bo‘g‘in, so‘zlarni, she’rlarni ayttirish bilan mustahkamlanadi.

Normadagi R tovushini bog`inlarda mustahkamlash

Yopiq bog‘inlar:

a-r-r-r-r-r-r	o-r-r-r-r-r-r
i-r-r-r-r-r-r	u-r-r-r-r-r-r
e-r-r-r-r-r-r	o`-r-r-r-r-r-r

Ochiq bog`inlar:

r-r-r-r-r-r-a	r-r-r-r-r-r-o
r-r-r-r-r-r-i	r-r-r-r-r-r-u
r-r-r-r-r-r-u	r-r-r-r-r-r-o‘

R tovushining talaffuz ettilishida yordam beruvchi mashqlar: RO-RO-RO. RU-RU-RU

ROZI	ROSTDAN	RUXSAT
ROSA	ROSTLIK	RUH
ROST	ROSTGO‘Y	RUHIY
ROHAT	ROZILIK	RUHONIY
RUBOB	RUBOIY	RUCHKA

Raxim har doim rost gapiradi

U rostgo‘y bola.

Toshkentda Rohat ko‘li bor.

Ravshan gavdasini rostladi.

Rustam rubob chaldi.

Rustam rubob chaldi.

Lambdatsizm va uni tuzatish

Talaffuz vaqtida L tovushi hosil bo‘lmasa, bu holat lambdatsizm deb ataladi.

Talaffuz va L tovushi boshqa tovushlar bilan almashtirilsa, bunday holat paralambdatsizm deyiladi. L tovushi talaffuz etilganda artikulatsion a’zolar quyidagi holatda boladi:

- lablar undosh tovushdan so‘ng keladigan unli tovush holatini oladi (22-rasm); lablar undosh tovushdan so‘ng keladigan unli tovush holatini oladi;

- til uchi yuqoriga ko‘tarilib alveolalarga qattiq tegadi va biroz zarb bilan pastga tushadi;

- tilning o‘rta qismi yoy shakliga kiradi;

- tilning orqa qismi biroz yuqoriga ko‘tariladi;

- yumshoq tanglay yuqoriga ko‘tarilgani uchun havo oqimi burunga o‘ta olmaydi;

- ovoz paychalari jipslashgan holatda bo‘ladi.

L tovushi quyidagi tovushlarga almashtiriladi:

Bola L tovushini orniga B+V tovushlarin qo‘llaydi B+V tovushi pastki labning yuqori labgakeli taqaladi, bir biriga yaqinlashgan lablarning ortasida paydo bo‘lgan oraliqdan qisilib chiqishi natijasida paydo bo‘ladi. L tovushining orniga B+V tovushini qollaydi. Masalan: Lagan-Bvagen, pul-pubv.

L tuvushining orniga Y tovushining qollanilishi. Masalan: Lola-Yoya, pul-puy

Havo oqimining burundan chiqishi natijasida L tovushi orniga N tovushi eshitilishi. Misalan: pul-pun

L tovushining orniga uning yonida kelgan unli harflarni chozib aytadi. Masalan: Pul-puu

L tovushining notog‘ri talaffuzining sabablari tilning yuqorg‘ tishlarga tegmasligi yoki tilni ushlab turolmaslik hisoblanadi.

L tovushini hosil qilish uchun bir nechta usuilardan foydatanish mumkin.

1-usul. Logoped bola bilan birga oyna oldiga o‘tirib, unga tilini yassi holatda yuqori va pastki tishlar orasiga olishni va til uchini yengilgina tishlagan holda ovoz chiqarishni taklif etadi. Shunda L tovushiga o‘xshash tovush hosil boladi. Bunday mashq aniq tovush hosil bo‘lmaguncha takrorlanadi. L tovushi aniq talaffuz etilgandan so‘ng tilni yuqori tish alveolalari tomon ko‘tarib L tovushi to‘g‘ri artikulatsiya holatida talaffuz etishga o‘rgatiladi. So‘ng L tovushi ochiq, yopiq bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, jumlalarda, she’rlarda mustahkamlanadi.

2-usul. Bunda logoped bolaga tilni yanada yassi holatga keltirib, tishlar orasiga olishi va til uchini yengilgina tishlab, L tovushini talaffuz etishni taklif etadi. Shunda L tovushi hosil bo‘ladi. L tovushi shu usulda mustaqil hosil bo‘lganidan keyin logoped boiaga tilni yuqoriga, tishlar orasiga olib L tovushini talaffuz etishni taklif etadi. L tovushi nutqda aniq hosil bo‘lgach, u ochiq , yopiq bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, jum lalarda, she’rlarda mustahkamlanadi.

3-usul. Logoped boiaga a tovushini talaffuz qilishni va shu zahotiyoq tilning uchini keng yoyib yengilgina tishlashni taklif etadi. Bunda L tovushi aniq hosil b o ‘ladi. Shundan so‘ng L tovushini to‘g‘ri artikulatsiyada talaffuz etish o‘rgatiladi. L tovushi nutqda aniq va to‘g‘ri hosil bo‘lgach, u bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, jumlalarda, she’rlarda mustahkamlanadi.

Normadagi L tovushini bog‘inlarda mustahkamlash

Yopiq bog‘inlar:

a-l-l-l-l-l-l	o-l-l-l-l-l-l
i-l-l-l-l-l-l	u-l-l-l-l-l-l
e-l-l-l-l-l-l	o`-l-l-l-l-l-l

Ochiq bog‘inlar:

l-l-l-l-l-l-a	l-l-l-l-l-l-o
l-l-l-l-l-l-i	l-l-l-l-l-l-u
l-l-l-l-l-l-u	l-l-l-l-l-l-o‘

L tovushining talaffuz ettilishida yordam beruvchi mashqlar: La-La-La-La

LAB	LAYOQAT	LAQAB
LAGAN	LAZZAT	LAVHA
LAYCHA	LAHZA	LAYLAK
LANJ	LATIFA	LAPAR
LAQQA	LAVZ	LATTA

Mening oyim lazzatli palovni laganga suzdi.

Bizning tomda laylak yashaydi.

Men changni latta bilan artdim.

Baliqchi laqqa baliq tutdi.

Alla

Alla, bolam, alla-yo,
Ko‘rar ko‘zim, alla-yo,
Suyar so‘zim, alla-yo,
Shirin jonim, alla-yo,
Issiq nonim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo.

L va R tovushlarining differensiyasi

L-R tovushlari bola lug`atida bo`lak paydo bolganidan keyin quyidagi bosqichlar otiladi. Har bir tovushga alohida etibor berib, togri aytish va muloqatda

mustahkamlash bosqichma-bosqich olib boriladi. Logoped bog‘inlarni yoki so‘zlarni aytadi, keyinbolaga qaytalashni soraydi. Bola har bir tovushni tog‘ri takrorlay alganiga etibor beradi.

L-R tovushlarining bir bog‘inda aytilishi:

La-ra-la-ra	ra-la-ra-la
Ar-al-ar-al	al-ar-al-ar
li-ri-li-ri	il-ir-il-ir
ri-li-ri-li	ir-il-ir-il
lo-ro-lo-ro	ol-or-ol-or
ro-lo-ro-lo	or-ol-or-ol

Artikulatsiya gimnastikasi

Dastlabki logopedik tekshirish jarayonida artikulatsion apparat a‘zolari tuzilishida kamchiliklar borligi aniqlanadi. Bunday hollarda fonematik idrokni rivojiantirish ishlari bilan parallel ravishda artikulatsiya gimnastikasi (tayyorgarlik mashqlari) olib boriladi.

Artikulatsiya gimnastikasining maqsadi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish uchun zarur bo‘lgan artikulatsiya a’zolarini to‘liq, aniq keltirish va oddiy harakatlarni murakkab harakatlarga - turli xil fonemalarning artikulatsiya tartibiga birlashtirishdan iboratdir.

Hamma artikulatsion mashqlari tizimini ikki turga bo`lish mumkin: statik va dinamik. Statik mashqlarda artikulatsiya a‘zolari turli holatlarga keltiriladi, lekin harakat boMmaydi. D inam ik mashqlarda artikulatsiya a ‘zolari turli holatlarga va shu bilan birga harakatga keltiriladi.

Har bir mashqlar o‘z nomiga ega. Mashqlarning nomlari shartli, lekin bolalarning ularni eslab qolishlari juda muhimdir. Chunki, birinchidan, nomlar bolada o‘tkaziladigan mashqqa nisbatan qiziqish uyg‘otadi, ikkinchidan, vaqtni tejaydi, ya’ni bunda logopedga har safar mashqlarni bajarish usulini takror tushuntirishga hojat qolmaydi, bolaga bajarilishi kerak bo‘lgan mashqning nomini aytish kifoya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. М.: Гуманит. изд. центр “ВЛАДОС”, 2003. 272 с. [Электронный ресурс].

2. Воронова А.Е. Логоритмика для детей 5–7 лет: В 2 ч. Ч. 1. М.: ТЦ Сфера, 2016. 64 с.

3. Елизарова Н.А., Сафронова А.А. Логоритмическое воспитание в образовательных учреждениях // Современные проблемы психолого-педагогического сопровождения детства / Под ред. Г.С. Чесноковой (редкол.: Р.О. Агавелян, Н.А. Кузь, Л.В. Ковригина и др.). Новосибирск: НГПУ, 2014. С. 104–107. [Электронный ресурс]. URL: https://lib.nspu.ru/views/sbo/2893/read.php (дата обращения: 07.08.2022)

4. Нищева Н.В. Логопедическая ритмика в системе коррекционно-развивающей работы в детском саду. М.:Детство-Пресс, 2014. 275 с.

5. Грибукова О.Г. Технологии и формы работы с детьми с нарушениями слуха и речи. Новосибирск: НГПУ, 2018. [Электронный ресурс]. URL: https://lib.nspu.ru/views/library/76388/web.php (дата обращения: 07.07.2022).

6. Шапкова Л.В. Коррекционные подвижные игры и упражнения для детей с нарушениями в развитии / Под общ. ред. проф. Л.В. Шапковой. М.: Советский спорт, 2002. 212 с.

7. Алексеева А.С., Клясюк А.А. К проблеме изучения роли двигательной сферы в речевом развитии ребенка // Специальное образование. СПб.: Изд-во ЛГУ, 2016. Т. 2. С. 71–75.

8. Бабушкина Р.Л., Кислякова О.М. Логопедическая ритмика, методика работы с дошкольниками, страдающими ОНР. СПб.: КАРО, 2005. 176 с.

9. Картушина М.Ю. Конспекты логоритмических занятий с детьми 5–6 лет. М.: ТЦ Сфера, 2008. 208с.

10. Филатова Ю.О., Гончарова Н.Н., Прокопенко Е.В.Логоритмика: Технология развития моторного и речевого ритмов у детей с нарушениями речи / Под ред. Л.И. Беляко

Research Science and Innovation House